

**KREDIT MODUL TIZIMIDA TALABALARNING O'QUV FAOLIYATINI
TAKAMILLASHTIRISH VA INGLIZ TILINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYASI
BILAN O'QITISH**

Ashurova Nasiba Muhammadiyevna

Doniyorova Zarnigor Alisherovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12568736>

Annotsatsiya. Ushbu maqolada kredit-modulli ta'lim tizimida talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kredit, modul, tizim, pedagogik texnologiya, intellektual salohiyat, professionallik, mahorat, usul.

**IMPROVING STUDENTS' LEARNING ACTIVITY IN THE CREDIT MODULE
SYSTEM AND TEACHING ENGLISH WITH COMPUTER TECHNOLOGY**

Abstract. This article provides theoretical and practical recommendations on the development and management of students' independent educational activities in the credit-module education system.

Key words: credit, module, system, pedagogical technology, intellectual capacity, professionalism, skill, method.

**ПОВЫШЕНИЕ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В КРЕДИТНОЙ
МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ И ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ С
ПОМОЩЬЮ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

Аннотация. В статье представлены теоретические и практические рекомендации по развитию и управлению самостоятельной учебной деятельностью студентов в кредитно-модульной системе обучения.

Ключевые слова: кредит, модуль, система, педагогическая технология, интеллектуальный потенциал, профессионализм, умение, метод.

Bugungi kunda o'quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan holda emas, balki ayni vaqtda buyuk insoniy fazilatlariga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassis bo'lishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi ta'lim muassasalaridagi barcha o'qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko'nikmalari bilan qurollangan, o'z pedagogik faoliyatiga kreativ yondosha oladigan, kompetentli va madaniyatli shaxs sifatida bo'lishlarini yana bir bor ta'kidlab bermoqda. Hozirgi davr talabi

o'qituvchilarga yangi vazifa va bir qancha ma'suliyatlarni yuklaydi. Zamonaviy texnologiyani kirib kelishi bilan ingliz tilini o'qitish an'anasi sezilarli darajada o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF -5847 – son farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta'lim jarayonlarni raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, kredit modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar olib borilmoqda.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting ball asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovasion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Keling, shu o'rinda modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning

faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish printsipli asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;
- talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;
- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Hozirgi kunda davr talabi hisoblangan ingliz tilini o'rganishning ahamiyati O'zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo'lib bormoqda. Bir qancha ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishni yangi metod va qo'llanmalarini hayotga tadbiiq qilishmoqda. Bu albatta chet tillarni o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Texnologiyalardan foydalanib, o'qitishning bir qancha o'ziga xos afzalliklari mavjud. Bundan tashqari, u o'qitish tizimini ancha samaradorligini oshiradi va o'z navbatida til o'rganilayotgan o'quvchini zamon bilan hamnafas bo'lib, olg'a intilishiga ko'maklashadi. Texnologiya asta sekinlik bilan an'anaviy o'qitishning o'rnini egallamoqda.

Bugungi kunda televizion dasturlarda bir qancha ingliz tilini o'rgatishga ko'maklashuvchi yangi dastur va ko'rsatuvlar muntazam ravishda uzatilib kelinmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda o'qitishning samaradorligini oshirish uchun O'zbekistonda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy qilindi. Misol uchun, multimediya asosida chet tili o'rgatilayotgan o'quvchida to'rt ko'nikmani

rivojlantirish ya'ni (reading, writing, speaking and listening), qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Bundan tashqari o'quvchi jonli harakatlarni ko'rib ba'zi so'zlarning ma'nosini taxmin qila oladi va uni tushunishga harakat qiladi. Albatta har qanday chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar komputer, radio, CD, DVD qo'llash ta'lim jarayonini yanada rivojlantirib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq o'rganish imkonini beradi. Ingliz tili darslari davomida ba'zi o'qituvchilarning texnologiyalarni qo'llashni bilmasliklari va foydalanmasliklari, o'quvchilarning bir muncha zerikishlariga olib keladi. Aynan shu sababli ya'ni o'rganuvchining ishtiyoqini so'ndirmaslik uchun dars davomida texnologiyalardan ,turli xil tarqatma materiallardan va kamida komputerdan foydalanish o'rganuvchining qiziqishini ortib borishini yanada ta'minlamoqda. Zero, o'rganuvchining yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, darslarni o'zlashtirishiga qarab tayyorlangan o'quv materiallari albatta samara beradi. Shuning uchun ham, biz o'qituvchilar ushbu talablar asosida o'quv materiallarini tanlamasak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkab so'zlardan iborat bo'lgan video-filmlar, qo'shiqlar yoki matnlarni eshittirmasak yoki multimedia, komputerlar orqali namoyish etmasak, o'rta va yuqori sinf yoki guruh o'rganuvchilariga juda ham sodda matnlardan iborat o'quv materiallarini namoyish etganimizda o'rganuvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari asta-sekin so'na boshlaydi va darslarni o'zlashtirmay qo'yishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, darslarimizni yanada boyitish, o'rganuvchilarni qiziqitira olish, ularning bilimlarini boyitishda hamda mustaqil ishlay olishlari uchun ham zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Ularni to'g'ri va o'rinli qo'llay olish esa yutuqlarimizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. -Toshkent, 2001.
2. Boltaeva M.L. Fizika ta'limi jarayonida talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish. P.f.n. ... dissertatsiya. Toshkent. TDPU. 2004.
3. Muslimov N.A., Quysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. Toshkent: TDPU. 2006